

“MENING OTIM QIRMIZI” VA “ISYON VA ITOAT” ASARLARINING G‘OYAVIY-FALSAFIY TALQINI

Sanakulova Mohibonu

Navoiy davlat universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18858460>

Annotatsiya: Ushbu tezisda O‘rxon Pomuqning “Mening otim Qirmizi” hamda Ulug‘bek Hamdamning “Isyon va itoat” romanlarida ilgari surilgan g‘oya va falsafiylik tahlil qilinadi. Har ikki asarda o‘tish davrining murakkab ma‘naviy-ruhiy jarayonlarini inson qalbi, tafakkuri va e‘tiqodi orqali yoritiladi.

Kalit so‘zlar: g‘oya va falsafa, tarixiy tafakkur, ma‘naviy inqiroz, isyon, itoat, an‘ana va yangilik.

AN IDEOLOGICAL AND PHILOSOPHICAL INTERPRETATION OF “MY NAME IS RED” AND “REBELLION AND OBEDIENCE”

Sanakulova Mohibonu

Navoi State University

1st year Master’s Student, Uzbek Language and Literature

Abstract. This thesis analyzes the ideas and philosophical aspects advanced in My Name Is Red by Orhan Pamuk and Rebellion and Obedience by Ulugbek Hamdam. In both novels, the complex spiritual and psychological processes of a transitional period are illuminated through the human heart, consciousness, and faith.

Keywords: idea and philosophy, historical thinking, spiritual crisis, rebellion, obedience, tradition and modernity.

Kirish

Adabiyot jamiyat hayotining badiiy aksidir. Har bir yirik asar o‘z davrining ruhiy manzarasini, inson tafakkuridagi o‘zgarishlarni hamda qadriyatlar tizimidagi siljishlarni ifoda etadi. Ayniqsa, tarixiy burilish davrlarida yaratilgan yoki o‘sha davrni tasvirlagan asarlarda davr ruhiyati muhim estetik kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘rxon Pomuqning “Mening otim Qirmizi” romani XVI asr Usmoniylar saltanati davrida Sharq va G‘arb san‘at tafakkuri o‘rtasidagi ziddiyat fonida inson ongidagi ikkilanishni tasvirlaydi. O‘zlem Uzundemirga ko‘ra, “Pamuk bu romanida 16. yuzyıl Osmanlı sanatçıları ile 20. yuzyıl Türk okuru arasında bir dialog kurmayı amaçlar. Yazar aynı zamanda romanın postmodern üstkurmaca yapısıyla Doğu ve Batı arasında bir köprü kurmayı ister”[1], ya‘ni yozuvchi bu roman orqali Sharq va G‘arb orasiga bir ko‘prik qurishni istaydi. Ulug‘bek Hamdamning “Isyon va itoat” asarida esa mustaqillikdan keyingi jamiyatning ma‘naviy izlanishlari, shaxsning e‘tiqodiy va axloqiy tanlovi markazga qo‘yiladi. Har ikki asar turli tarixiy makonda yaratilgan bo‘lsa-da, ularda davr ruhiyatini ochish tamoyili mushtarakdir.

Asosiy qism

“Mening otim Qirmizi” romanida davr ruhiyati san‘at orqali ochiladi. Miniaturaga san‘ati an‘analariga sodiq qolish yoki G‘arb realizmiga yuzlanish masalasi asarda markaziy konfliktni tashkil etadi. Bu ziddiyat aslida ikki xil dunyoqarash to‘qnashuvidir. Miniaturachilar uchun tasvir — ilohiy haqiqatni aks ettirish vositasi. G‘arb uslubidagi realizm esa insonni markazga qo‘yadi. Demak, bu qarama-qarshilik ilohiylik va individuallik o‘rtasidagi ziddiyatni ifodalaydi. Asarda san‘atkorlar ongida paydo bo‘lgan qo‘rquv, shubha va ikkilanish davr ruhiyatining

asosiy belgilaridir. Pomuq ko'p ovozli kompozitsiya orqali davrning murakkabligini ko'rsatadi. Har bir obraz o'z nuqtayi nazariga ega. Bu usul tarixni yagona haqiqat sifatida emas, balki turli qarashlar yig'indisi sifatida talqin qilish imkonini beradi. Natijada davr ruhiyati bir yoqlama emas, balki ichki parokandalik va izlanish holatida namoyon bo'ladi. Asarda bosh obraz o'z davrining bosimi ostida qolgan ijodkor sifatida tasvirlanadi. U o'z tanlovi orqali nafaqat san'at, balki e'tiqod masalasida ham qaror qabul qiladi. Bu jarayon tragik ruh bilan sug'orilgan bo'lib, davr o'zgarishlarining og'riqli kechayotganini ko'rsatadi.

“Isyon va itoat” romanida davr ruhiyati tashqi tarixiy voqelikdan ko'ra ko'proq ichki ruhiy makon orqali ochiladi. Asar markazida insonning ma'naviy izlanishi, e'tiqodiy sinovi turadi. Bu romanda isyon inkor qilish emas, balki haqiqatni izlash bosqichi sifatida talqin qilinadi. Qahramon ichki iztirob, shubha va savollar orqali ruhiy poklanish sari harakat qiladi. Itoat esa majburiy bo'ysunish emas, balki anglangan haqiqatni ongli ravishda qabul qilishdir. “Isyon va itoat” romanida haqiqat va o'zligini anglash ziddiyatli, og'ir va chigalli muammolarni, ya'ni isyonni yengib o'tish orqasida qo'lga kiritiladi, degan g'oyani ifodalaydi”[2]. Asarda mustaqillik davri jamiyatidagi qadriyatlar o'zgarishi aks etadi. O'tish davri inson ongida bo'shliq, ishonchsizlik va ma'naviy izlanish holatini yuzaga keltiradi. Muallif shu jarayonni psixologik tahlil orqali ochadi. Ulug'bek Hamdam uslubida ichki monolog, falsafiy mushohada ustunlik qiladi. Bu esa davr ruhiyatini individual qalb kechinmalari orqali ko'rsatish imkonini beradi. Shaxs bu yerda passiv kuzatuvchi emas, balki o'z ruhiy kurashi orqali ma'naviy kamolotga erishuvchi faol subyektdir.

Har ikki asar davr ruhiyatini tasvirlashda qadriyatlar tizimining o'zgarishi, o'tish davrining inqirozli xarakteri, shaxs ongidagi ikkilanish va ruhiy iztirob, an'ana va yangilik o'rtasidagi ziddiyat kabi umumiy jihatlariga ega. Biroq talqin uslubi va badiiy vositalarda sezilarli farqlar mavjud. “Mening otim Qirmizi”da davr ruhiyati madaniy-sivilizatsion to'qnashuv orqali ochiladi. Konflikt tashqi tarixiy sharoit bilan chambarchas bog'liq. Ko'p ovozlilik va detektiv unsurlar davr murakkabligini yanada kuchaytiradi. “Isyon va itoat”da esa asosiy e'tibor ichki ruhiy konfliktga qaratilgan. Bu yerda tarixiy makon fon vazifasini bajaradi, asosiy drammatizm inson qalbidagi kechadi. Asar falsafiy-psixologik yo'nalishda rivojlanadi. Pomuq asarida san'at vositasida davr talqin qilinsa, Hamdam romanida e'tiqod va axloqiy tanlov markazga qo'yiladi. Shunday qilib, biri tashqi madaniy inqirozni, ikkinchisi ichki ma'naviy uyg'onishni tasvirlaydi.

Xulosa

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, har ikki roman o'tish davrining murakkab ruhiy manzarasini ochishga qaratilgan. “Mening otim Qirmizi”da davr ruhiyati Sharq va G'arb tafakkuri to'qnashuvi orqali o'zgarishlar sifatida tasvirlanadi. “Isyon va itoat”da esa davr ruhiyati shaxs qalbidagi e'tiqodiy izlanish va ma'naviy kamolot jarayoni bilan bog'liq holda ochiladi. Har ikki asar inson va davr o'rtasidagi murakkab munosabatni turli estetik vositalar orqali yoritgan holda, zamon ruhini badiiy tafakkur darajasiga ko'targan yirik adabiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Uzundemir Özlem, Benım adım Kırmızı'da Doğu ile Batı, geçmiş ile günümüz arasında diyalogarayışları. Makale, Başkent Üniversitesi, 2001, 112.sayfa.
2. Kochkarov Ikromjon, Ulug'bek Hamdam romanlarida diniy-dunyoviy tafakkur badiiy

talqini. Magistrlik dissertatsiyasi, Nukus, 2021, 54-bet.

3. Ulug'bek Hamdam, Isyon va itoat. Yangi asr avlodi, T., 2003.
4. O'rxon Pomuq, Mening otim Qirmizi, Tarjimon Eldar Asanov. Irqo-nashr, T., 2025.
5. Sulton I., Adabiyot nazariyasi. "O'qituvchi", T., 2005.
6. Xalliyeva G., Qiyosiy adabiyotshunoslik. "Akademnashr", T., 2020.